

**O'ZBEKISTONNING YEVROSIYO IQTISODIY ITTIFOQI BILAN IQTISODIY
ALOQALARI: IMKONIYATLAR VA QIYINCHILIKLAR***Yusuffjonov Bahrom Yo'ldoshovich**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Xalqaro jurnalistika fakulteti**Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi**2-bosqich talabasi.*

ANNOTATSIYA: Maqola O'zbekistonning Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga qo'shilishi masalasini tahlil qiladi va bu qarorning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatlarini ko'rib chiqadi. YEOIIga qo'shilishning ijobiy va salbiy tomonlari, shu jumladan, savdo aloqalari, investitsiyalar, transport, energetika, innovatsiyalar va sanoat sohalaridagi o'zgarishlar muhokama qilinadi. Maqolada O'zbekistonning YEOII bilan iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishning ahamiyati, shuningdek, bu tashkilotga qo'shilish uchun zarur tayyorgarliklar haqida so'z boradi. O'zbekistonning YEOIIga qo'shilishi mamlakat iqtisodiyotining global integratsiyasini kuchaytirishga yordam berishi mumkinligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy aloqalar, savdo, investitsiyalar, transport, energetika, innovatsiyalar, sanoat, mehnat resurslari, integratsiya.

ABSTRACT: The article analyzes the issue of Uzbekistan joining the Eurasian Economic Union and considers the economic, political and social aspects of this decision. The pros and cons of joining the EU will be discussed, including changes in trade, investment, transport, energy, innovation and industry. The article talks about the importance of developing economic relations of Uzbekistan with the EUII, as well as the necessary preparations for joining this organization. Uzbekistan's accession to YEOII can help strengthen the global integration of the country's economy

Key words: Economic relations, trade, investments, transport, energy, innovations, industry, labor resources, integration.

АННОТАЦИЯ: В статье анализируется вопрос вступления Узбекистана в Евразийский экономический союз и рассматриваются экономические, политические и социальные аспекты этого решения. Будут обсуждаться плюсы и минусы вступления в ЕС, включая изменения в торговле, инвестициях, транспорте, энергетике, инновациях и промышленности. В статье говорится о важности развития экономических отношений Узбекистана с ЕСИИ, а также о необходимой подготовке к вступлению в эту организацию. Присоединение Узбекистана к YEOII может способствовать усилению глобальной интеграции экономики страны

Ключевые слова: Экономические отношения, торговля, инвестиции, транспорт, энергетика, инновации, промышленность, трудовые ресурсы, интеграция.

KIRISH

So'nggi kunlarda mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII)ga kirishi yo kirmasligi haqida qizg'in muhokama va munozaralar bo'lmoqda. Fikr-mulohazalar esa turlicha. Keling, ularga xulosa yasashga shoshilmay, O'zbekistonning mazkur tashkilotga qo'shilishining ijobiy hamda salbiy jihatlarini haqida fikrlashsak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2014-yil 29-mayda Ostona shahrida imzolangan "Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi haqida"gi Shartnomaning 4-moddasida uni tuzishning asosiy maqsadlari sifatida a'zo-davlatlar aholisining turmush darajasini oshirish maqsadida ular iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, tashkilot doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining yagona bozorini shakllantirishga intilish, global iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotlarni har taraflama modernizatsiya, kooperatsiya qilish va ular raqobatbardoshligini oshirish kabilar belgilangan. Demak, bu O'zbekistonning yangi iqtisodiy siyosatining asoslarini belgilab bergan Harakatlar strategiyasi maqsadlariga mos keladi.

Ayni paytda YEOII **a'zolari** — Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Armaniston davlatlarining umumiy maydoni 20,3 million kvadrat kilometrni tashkil etadi, aholisi 186 million kishi, YAIM hajmi 1,9 trillion AQSH dollariga teng. Ko'rinib turibdiki, YEOII — hajmi jihatidan juda katta bozor va bu bozorning teng huquqli a'zosi bo'lish O'zbekistonga ulkan imkoniyatlar yaratib beradi¹.

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti asrlar mobaynida turli omillar ta'siri ostida biri-birini to'ldirib turadigan yagona hududiy kompleks holida shakllangan. SSSR parchalangunga qadar Markaziy Osiyo davlatlari yagona hududiy kompleks sifatida saqlanib turgan.

1992 — 2016-yillar mobaynida beshta davlatning iqtisodiy aloqalari susaydi, o'rtada sun'iy to'siqlar paydo bo'ldi. Bu davlatlarning hammasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashqi siyosat butkul o'zgartirilib, hamma davlatlar, ayniqsa, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalar kengaytirilgani mintaqada davlatlari iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi. Xususan, 2016 — 2019-yillarda YEOII davlatlari bilan hamkorlikning kuchayishi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududiy klasterlar, sanoat va savdo zonalarini tashkil etishda mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini yanada kengaytiradi, tuman hamda shaharlarni industrial rivojlantirish maqsadida hududlarga chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Ittifoq doirasida tovarlarning boj to'lovlarisiz olib o'tilishi, davlatlarning ichki bozorlariga mahalliy tovarlarning hech qanday to'siqlarsiz kirib borishi, bojxona idoralari faoliyatini tartibga solishning umumiy va mukammal tizimini yaratish, kapital harakati erkinligini ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Bu iqtisodiy aloqalar kuchayishining ijobiy tomonlari edi. Shu bilan birga, uning ayrim salbiy jihatlarini ham mavjud. Bular — mamlakatimizda mahsulotlari yuqori narxga ega bo'lgan korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sirlar bo'lishi, ichki bozorda import mahsulotlari hajmining ko'payishi, ayrim tovarlar bozorida raqobatning ortishi, hozir turlicha bo'lgan texnik tartibga

¹ About Eurasian Economic Union. Url: <http://www.eaeunion.org/?lang=en>



solish va standartlarni bir xil qilish bilan bog'liq muammolar paydo bo'lishi, tayyor sanoat tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha tumanlararo tafovut ortishi kabi ehtimollar.

YEOII doirasida yagona elektr energiyasi bozorini yaratish va shu yo'l orqali barcha a'zo davlatlarni nisbatan arzon elektr energiyasi bilan ta'minlash, suv resurslaridan oqilona foydalanishda bir yechimga kelish mumkin. Bular iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston ittifoqqa a'zo mamlakatlar ichida mehnat resurslari soni bo'yicha Rossiyadan keyin 2-o'rinni egallaydi. Bu esa O'zbekistonning mehnat resurslariga boyligini, mehnat salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Masalaga shu jihatdan yondashilsa, ittifoqqa a'zo bo'lish mehnat munosabatlari masalasida ko'plab ijobiy natijalarni beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari S. Safoyev ta'kidlaganidek, 1992 — 2016-yillar mobaynida O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini yaratish bilan shug'ullanmadi, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlay olmadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda xususiylashtirishni o'tkazish va xususiy mulk xavfsizligini ta'minlash kerak.

Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, siyosiy va iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, xususiylashtirish konsepsiyalari hamda dasturlarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etishda YEOII davlatlari bizdan ancha oldinga o'tib ketgan. Shu bois mazkur tuzilmaga a'zo bo'lib kirsak, biz ularning bu boradagi tajribasidan ham samarali foydalanishimiz mumkin.

O'zbekistonning YEOIIga qo'shilishi masalasi haqida internet sahifalarida xorijiy va mahalliy ekspertlar fikrlari bilan tanishib chiqarkanmiz, aytish joizki, ular bir-birlaridan keskin farq qiladi. Ittifoqqa a'zo bo'lishni ijobiy baholagan fikrlar ko'proq. Lekin ular ichida o'ta sayoz, chuqur o'ylanmagan, ortiqcha hayajonga berilgan, yetarli asoslanmagan, hatto mutlaqo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan mulohazalar ham uchraydi. Ularga yirik siyosatshunos va iqtisodchi olim, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari S. **Safoyev** yaqinda bo'lib o'tgan bir anjumanda qat'iy ta'kidlagan quyidagi gapni aytish kifoya: "O'zbekiston milliy manfaatlariga raxna soluvchi hech qanday shartnomaga qo'l qo'yamaydi!"².

Mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirishining ayrim salbiy tomonlari mavjud bo'lsa-da, ijobiy jihatlari ko'p va salmoqli hamda ular O'zbekistonning manfaatlariga mos keladi. Hamma gap ushbu tashkilotga kirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rishga bog'liq. Ana shunda bu tadbir xalqimizning manfaatlariga xizmat qiladi va mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada o'sishiga yordam beradi.

2022-yildagi iqtisodiy hamkorlik natijalari va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) doirasida savdo aloqasi tahlil qilindi. Bu haqda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi xabar berishicha O'zbekistonning Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan yanvar—oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 12,6 mlrd dollarni yoki 24,6 foizni tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 4,5 mlrd dollar, import hajmi esa 8,1 mlrd dollarga yetgan. O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida YOII davlatlarining ulushi 31,4 foizni, jami eksport — 29,1 foizni, jami

² Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Kingdom of Belgium. Url: belg@uzbekistan.be

import — 32,9 foizni tashkil etdi³. O'zbekiston 2020-yilning dekabrda Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. Aynan shu uyushma bilan eng yaqin savdo-iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilib, YOII bilan yanada integratsiyalashuv ularni yanada mustahkamlash imkonini beradi. Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarining 2020-yilda O'zbekiston bilan savdo aylanmasi qariyb 10 milliard dollarni tashkil etdi. YOII mamlakatlarining ulushi O'zbekiston umumiy tovar eksportining 30-31 foizini tashkil etadi⁴.

O'zbekistonning Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekistonning Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YEII) bilan iqtisodiy aloqalari so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. YEII, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Armanistonni o'z ichiga olgan iqtisodiy tashkilot bo'lib, u mintaqaviy savdo, investitsiyalar, transport va boshqa sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. O'zbekistonning YEII bilan aloqalari ayniqsa, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda⁵.

Savdo va Investitsiyalar albatta ikki tomon o'rtasidagi asosiy faoliyat maydoni hisoblanadi. O'zbekistonning YEII bilan eng asosiy iqtisodiy aloqalaridan biri – savdo va investitsiya sohasida rivojlanmoqda. YEII a'zolari, xususan Rossiya, O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biridir. O'zbekistonning eksportida Rossiyaning ulushi katta bo'lib, ayniqsa, paxta, meva-sabzavotlar, tekstil mahsulotlari, kimyo va metallurgiya sanoatlari keng tarqalgan. O'zbekistonga YEII a'zolaridan, ayniqsa, Qozog'iston va Rossiyadan katta miqdorda investitsiyalar jalb qilinmoqda. Bu investitsiyalar asosan ishlab chiqarish, infratuzilma va energetika sohalariga yo'naltirilgan.

Transport va Logistika sohasining rivoji ham iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim omillardan hisoblanadi. O'zbekistonning geografik joylashuvi YEII doirasida transport va logistika tarmoqlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. YEII mamlakatlari o'rtasida yuk tashish va tranzit sohalaridagi hamkorlik mustahkamlanmoqda. O'zbekiston orqali o'tuvchi tranzit yo'llari va transport kommunikatsiyalari, ayniqsa, temir yo'l va avtomobil yo'llari, savdo hajmining oshishiga xizmat qilmoqda. O'zbekiston o'zining transport infratuzilmasini rivojlantirib, YEII mamlakatlari bilan logistika hamkorligini mustahkamlashga intilmoqda. Bu, o'z navbatida, mintaqaviy savdo va iqtisodiy integratsiyaga katta turtki beradi.

³ Торговые отношения Узбекистана с ЕАЭС за 2022 год. Review.uz. Url:

<https://review.uz/post/infografika-torgove-otnosheniya-uzbekistana-s-eaes-za-yanvar-dekabr-2022-goda>

⁴ Евразийская Открытая Модель Информационной Интеграции. Url:

<https://eomi.eaeunion.org/>

⁵ “O'zbekiston prezidentining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda keng ko'lamli xalqaro hamkorlik”, Xalq so'zi gazetasi, 2022- B.2-3.

Energetika va Tabiiy Resurslarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston bu borada juda katta salohiyatga egadir. O'zbekiston YEII bilan energetika sohasida hamkorlikni rivojlantirishda ham faoliyat olib bormoqda. Energetika resurslari, xususan, tabiiy gaz va neft sohalarida o'zaro aloqalar yanada kuchaymoqda. Rossiya va Qozog'iston bilan energetika sohasidagi hamkorlikning o'sishi, O'zbekistonning gaz eksporti va energetika resurslarini YEII davlatlariga yetkazib berishda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, YEII a'zolaridan olingan texnologiyalar va investitsiyalar O'zbekistonning energetika sektorining modernizatsiyasini tezlashtiradi.

Texnologiya va Innovatsiyalarni rivojlantirishdagi hamkorlik bugungi kunda juda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu borada yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Texnologiya va innovatsiyalar sohasida YEII mamlakatlari bilan hamkorlik o'sib bormoqda. O'zbekiston raqamli iqtisodiyot va yuqori texnologiyalar sohasida YEII mamlakatlarining tajribasidan foydalanishga intilmoqda. Ayniqsa, sanoat 4.0 va raqamli transformatsiya sohasidagi hamkorlik, O'zbekistonda yangi texnologiyalarni joriy etishda yordam beradi. YEII davlatlari bilan ilmiy-texnikaviy aloqalarni kuchaytirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviylashtirilishiga turtki bo'ladi.

O'zbekistonning sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida ham YEII bilan hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda. O'zbekiston paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida YEII mamlakatlariga katta ulushga ega. Rossiya va Qozog'iston bilan o'zaro savdo O'zbekistonga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, sanoat sohasida ham YEII mamlakatlari bilan ishlab chiqarish tarmoqlarining integratsiyasi o'smoqda. Bu esa O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarish hajmini oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

XULOSA

O'zbekistonning Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalari so'nggi yillarda kuchayib bormoqda. YEII a'zolaridan kelayotgan investitsiyalar, savdo hajmining oshishi, transport va energetika sohalaridagi hamkorlik, innovatsiyalarni joriy etish kabi yo'nalishlarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Bu hamkorlik O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, O'zbekiston uchun YEII bilan hamkorlik mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Kingdom of Belgium. Url: belg@uzbekistan.be
2. Торговые отношения Узбекистана с ЕАЭС за 2022 год. Review.uz. Url: <https://review.uz/post/infografika-torgove-otnosheniya-uzbekistana-s-eaes-za-yanvar-dekabr-2022-goda>
3. "O'zbekiston prezidentining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda keng ko'lamli xalqaro hamkorlik" ,Xalq so'zi gazetasi, 2022- B.2-3.
4. About Eurasian Economic Union. Url: <http://www.eaeunion.org/?lang=en>
5. Евразийская Открытая Модель Информационной Интеграции. Url: <https://eomi.eaeunion.org/>